

**Z.M.BOBUR NOMIDAGI ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/31.12.2020.Tar.60.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH ASOSIDAGI
BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI

AKBAROV RAXMATILLO MURTOZALI O'G'LI

**IKKINCHI JAHON URUSHI YILLARIDA MATBUOTDA SIYOSIY,
IQTISODIY, IJTIMOIIY VA MADANIY MASALALARNING
YORITILISHI (1941 – 1945-YILLAR, O'ZBEK TILIDAGI GAZETALAR
MISOLIDA)**

07.00.08 – Tarixshunoslik, manbashunoslik va tarixiy tadqiqot usullari

**TARIX FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Andijon – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Содержание диссертации доктора философии (PhD)

Contents of abstract of the doctor of philosophy (PhD) dissertation

Akbarov Raxmatillo Murtozali o‘g‘li

Ikkinchi jahon urushi yillarida matbuotda siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy masalalarning yoritilishi (1941 – 1945-yillar, o‘zbek tilidagi gazetalar misolida) . 3

Акбаров Рахматилло Муртозали угли

Освещение политических, экономических, социальных и культурных вопросов в прессе в годы второй мировой войны (1941-1945 годы, на примере газет на узбекском языке) 25

Akbarov Rakhmatillo Murtozali ugli

Interpretation of political, economic, social and cultural issues in the press during the years of World War II (1941-1945, on the example of Uzbek newspapers) ... 49

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati.

Список опубликованных работ.

List of published works 53

**Z.M.BOBUR NOMIDAGI ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/31.12.2020.Tar.60.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH ASOSIDAGI
BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI

AKBAROV RAXMATILLO MURTOZALI O'G'LI

**IKKINCHI JAHON URUSHI YILLARIDA MATBUOTDA SIYOSIY,
IQTISODIY, IJTIMOY VA MADANIY MASALALARNING
YORITILISHI (1941 – 1945-YILLAR, O'ZBEK TILIDAGI GAZETALAR
MISOLIDA)**

07.00.08 – Tarixshunoslik, manbashunoslik va tarixiy tadqiqot usullari

**TARIX FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Andijon – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.4.PhD/Tar752 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Namangan davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uchta tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume) Ilmiy kengash veb-sahifasida (<http://kengash.adu.uz/tarix/>) va "ZiyoNET" axborot-ta'lim portal (www.ziynet.uz) manzillariga joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Madrahimov Zohidjon Sharofovich
tarix fanlari nomzodi, dotsent

Rasmiy opponentlar:

Shodmonova Sanobar Bazarbayevna
tarix fanlari doktori, professor

Xamraqulov Serobjon Soliyevich
tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Yetakchi tashkilot:

**Nizomiy nomidagi Toshkent davlat
pedagogika universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Z.M.Bobur nomidagi Andijon davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/31.12.2020.Tar.60.01-raqamli Ilmiy kengash asosidagi bir martalik Ilmiy kengashning 2025-yil " 25 " 01 kuni soat. 10.00 dagi majlisida bo'lib o'tadi. (170100, O'zbekiston Respublikasi, Andijon shahar, Universitet ko'chasi 129-uy. Tel: (+99874)223-88-30. Faks: (+99874)223-88-30. E-mail: agsu_info@adu.uz)

Dissertatsiya bilan Andijon davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (1923.B raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 170100, Andijon shahri, Universitet ko'chasi, 129-uy, tel: +99874-223-88-30. Faks: +99874-223-88-30).

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yilning " 07 " 01 kuni tarqatildi.
(2025-yil " 06 " 01 dagi 34 -raqamli reyestr bayonnomasi).


R.T. Shamsutdinov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi, tarix fanlari doktori, professor
M.O. Alixojiev
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash kotibi, tarix fanlari doktori, dotsent
U.S. Abdullayev
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy seminar raisi, tarix fanlari doktori, professor

KIRISH (doktorlik (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Mavzuning dolzarbligi va asoslanishi. O'tgan asrda dunyo xalqlari hayotida chuqur iz qoldirgan Ikkinchi jahon urushi bashariyat tarixidagi eng fojiaiy voqealardan biri sanaladi. Eng zamonaviy hisob-kitoblarga ko'ra, Ikkinchi jahon urushida 85 milliongacha odam halok bo'lgan. Bu hisob o'sha paytda Yer aholisining taxminan 3-3,7 foizini tashkil qiladi. Ikkinchi jahon urushida harbiy xizmatchilarga qaraganda ikki baravar ko'proq tinch aholi halok bo'lgan. Ularning aksariyati harbiy va urush jinoyatlari natijasida halok bo'lgan bo'lsa, yana katta qismi urush bilan bog'liq ochlik yoki kasallik tufayli halok bo'lishgan. Bundan tashqari, urush tufayli ko'plab mamlakatlarda iqtisodiy barqarorlik izdan chiqdi. Yetim va qarovsiz bolalar soni nihoyatda ko'paydi. Xalq ta'limi tanazzulga uchradi. Qurollanish jarayoni kuchayib, davlat mablag'larining katta qismi harbiy sohaga qaratilishiga sabab bo'ldi.

Butun jahonda Ikkinchi jahon urushi mavzusi hali hamon o'z ahamiyatini yo'qotgani yo'q. Jahon miqyosida mavzuga bag'ishlangan ilmiy anjumanlar tashkil etish ko'payib bormoqda. Jumladan, AQSHning Nyu Orlean shtatidagi Ikkinchi jahon urushi milliy muzeyi tomonidan 2006-yildan buyon muntazam ravishda o'tkazib kelingan Ikkinchi jahon urushiga bag'ishlangan xalqaro konferensiya 2021-yildan boshlab butunlay virtual platformada va birinchi marta omma uchun bepul translyatsiya qilinadigan bo'ldi¹. Mazkur anjumanlarda dunyoning turli mamlakatlaridagi tadqiqotchilar ishtirok etib kelmoqda. So'nggi yillarda Qo'shma Shtatlar Xolokost xotira muzeyidagi ilmiy tadqiqotlar natijasida fashizmning insoniyatga qarshi amalga oshirgan eng og'ir jinoyatlarini fosh qilishga bag'ishlangan nashrlar soni oshib bormoqda².

Mamlakatimizda ham Prezident Shavkat Mirziyoyevning "Xotira va qadrlash kuni" munosabati bilan har yili e'lon qilib borilayotgan qaror va farmoyishlari natijasida Ikkinchi jahon urushi tarixiga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar o'z ahamiyatini yo'qotmasdan, aksincha so'nggi yillarda sohaga qaratilgan ilmiy izlanishlar yangi qarash va tarixiy yangiliklar bilan boyib bormoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 9-may – Xotira va qadrlash kuni munosabati bilan G'alaba bog'iga tashrif chog'ida "bunday damlarda qahramon ota-bobolarimiz xotirasini yodga olib, ularning jasorati oldida ta'zim qilamiz. Ularning tinchlik va ozodlikka bag'ishlagan serqirra hayot yo'li kelgusi avlodlar uchun o'tda yonmaydigan, suvda cho'kmaydigan buyuk merosdir³," – deya ta'kidlagani ayni haqiqatdir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2018-yil 31-maydagi "Ikkinchi jahon urushida fashizm ustidan qozonilgan g'alabaga O'zbekiston xalqining qo'shgan munosib hissasiga bag'ishlangan kitob-albomni

¹ <https://www.historynet.com/the-international-conference-of-world-war-ii-is-going-virtual/> [Murojaat qilingan sana: 24.08.2023]

² <https://www.ushmm.org/research/publications/emerging-scholars-program> [Murojaat qilingan sana: 24.08.2023]

³ Mirziyoyev Sh. "Bugun dunyo tahlikali bo'lib borayapti" <https://www.gazeta.uz/oz/2022/05/09/9may/> [Murojaat qilingan sana: 16.12.2024]

nashr etish chora-tadbirlari to'g'risida"⁴, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022 – 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida", 2019-yil 23-oktabrdagi PQ-4495-son "Ikkinchi jahon urushida qozonilgan g'alabani 75 yilligini munosib nishonlash to'g'risida"⁵, 2017-yil 30-iyundagi PQ-3105-son "O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi huzurida O'zbekistonning eng yangi tarixi bo'yicha Jamoatchilik kengashi faoliyatini tashkil etish to'g'risida", 2021-yil 20-aprel, PQ-5081-son "Xotira va qadrlash kuniga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish chora-tadbirlari to'g'risida", O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 3-martdagi 119-son "Moddiy madaniy meros obyektlari va YUNESKOning umumjahon merosi ro'yxatiga kiritilgan hududlar muhofazasini kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarorlari hamda boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Dissertatsiya Respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" nomli ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi.*

Dissertatsiyada mavzu tarixshunosligi davriy matbuot tarixi bo'yicha hamda Ikkinchi jahon urushi tarixiga oid ilmiy adabiyotlar tahlilidan iborat bo'lib, ularni 3 guruhga ajratish maqsadga muvofiqdir. 1) Sovet davrida amalga oshirilgan ishlar; 2) Mustaqillik yillaridagi ilmiy tadqiqotlar; 3) Xorijlik mualliflarning asarlari. Tarixshunoslik tahlili shuni ko'rsatadiki, 1941 – 1945-yillarda chop etilgan o'zbek matbuotida mamlakatdagi siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy jarayonlar tarixi masalasi yaxlit va alohida mavzu sifatida tadqiqotchilar tomonidan maxsus o'rganilmagan.

Tadqiqot mavzusining dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta'lim muassasasi ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya Namangan davlat universitetining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasidan o'rin olgan "O'zbekistonning sovet tuzumi davridagi ijtimoiy-siyosiy va madaniy tarixini o'rganish (1924 – 1991-yy.)" mavzusi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi Ikkinchi jahon urushi yillarida O'zbekistondagi ijtimoiy-madaniy, iqtisodiy-siyosiy hayot sohasidagi jarayonlarni o'zbek matbuotida yoritilishini ochib berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

⁴Ikkinchi jahon urushida fashizm ustidan qozonilgan g'alabaga O'zbekiston xalqining qo'shgan munosib hissasiga bag'ishlangan kitob-albomni nashr etish chora-tadbirlari to'g'risida // <https://uzlidep.uz/uz/news-of-uzbekistan/2047> [Murojaat qilingan sana: 11.04.2023].

⁵O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 23.10.2019-yildagi "Ikkinchi jahon urushida qozonilgan g'alabani 75 yilligini munosib nishonlash to'g'risida"gi PQ-4495-sonli Qarori // <https://lex.uz/ru/docs/-4664439> [Murojaat qilingan sana: 03.04.2023].

*Muammoning o'rganilganlik darajasi dissertatsiyaning 1.1-paragrafidan batafsil yoritib berilgan.

Ikkinchi jahon urushi yillaridagi o'zbek matbuoti tarixiga bag'ishlangan ilmiy tadqiqot ishlarini tarixiy-xronologik jihatdan guruhlashtirish orqali mavzu tarixshunosligida kechgan o'zgarishlarni aniqlash;

Ikkinchi jahon urushi yillarida front va front ortida o'zbek matbuoti tizimidagi o'zgarishlarni aniqlash;

Urush yillaridagi o'zbek matbuotida berilgan sanoatlashtirish, elektrlashtirish va boshqa tarmoqlarga oid materiallarni tahlil qilish orqali sohaga oid yutuq va kamchiliklarni ochib berish;

Ikkinchi jahon urushi yillarida qishloq xo'jaligi bilan bog'liq voqeliklarni ochib berish;

urush davrida shoirlar, yozuvchilar, teatr jamoalari va kino san'atining g'alabaga qo'shgan hissasini asoslash;

ko'rilayotgan davr tarixida fan, ta'lim, sog'liqni saqlash sohasidagi vujudga kelgan muammolarni yoritib berish orqali ushbu davrdagi ijtimoiy hayot manzarasini ochib berish.

Tadqiqotning obyekti sifatida Ikkinchi jahon urushi yillarida front va front ortida chop etilgan o'zbek tilidagi gazetalarda siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy jarayonlarning yoritilishi tarixi olingan.

Tadqiqotning predmeti sifatida mavzuga oid o'zbek tilidagi gazetalarning sahifalarida chop etilgan xabar va maqolalar, arxiv hujjatlari va ilmiy-tarixiy adabiyotlarning tarixiy talqini tashkil etadi.

Tadqiqot usullari. Tadqiqot jarayonida tarixiylik tamoyili, qiyosiy tahlil, tizimlashtirish, tasniflash, sinxron, diaxron, muammoviy-xronologik kabi usullardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

Ikkinchi jahon urushi yillarida o'zbek tilida nashr qilingan respublika, oblast va rayon gazetolari matbuot va arxiv materiallari asosida nomma-nom tasniflab berilgan;

Ikkinchi jahon urushi davri gazetolari hamda arxiv manbalari asosida urush yillarida mahalliy imkoniyatlardan foydalangan holda oziq-ovqat, dori-darmon, turli sanoat mahsulotlari, ishlab chiqarishdan qolgan chiqindilardan Qizil armiya va xalq xo'jaligi uchun asbob-uskuna va har xil vositalar tayyorlangani "Qizil O'zbekiston", "Stalin haqiqati", "Lenin yo'li", "Buxoro haqiqati", "Xorazm haqiqati" nomli gazetalarda nashr etilgan ma'lumotlar asosida dalillangan;

Urush yillarida matbuot sahifalarida e'lon qilib borilgan she'rlar "ijtimoiy buyurtma" mahsuli sifatida aholini urushga safarbar etish, janglarda jasorat ko'rsatish, mudofaa fondiga mablag' yig'ish, harbiy zayomga yozilish, ko'chirilgan aholiga, ayniqsa, bolalarga g'amxo'rlik ko'rsatish, g'allani ko'paytirish, paxta rejasini oshirib bajarish va boshqa jarayonlarga faol jalb qilishga xizmat qilgani ochib berilgan;

Urush yillarida o'zbek matbuotida chop etilgan tibbiyot sohasiga oid maqolalarni arxiv ma'lumotlari bilan solishtirish asosida mazkur davrda aholi orasida yuqumli kasalliklarning tarqalishi kuchaygani, o'zbek matbuotining

aholiga yuqumli kasalliklarga qarshi kurashish borasida faol tarzda tibbiy bilimlar berib borganini aniqlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

1941 – 1945-yillarda frontda va O‘zbekistonda o‘zbek tilidagi matbuotda chop etilgan siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy jarayonlarga oid ma’lumotlar to‘planib, tizimlashtirilgan;

“Qizil O‘zbekiston”, “Lenin yo‘li”, “Xorazm haqiqati”, “Stalin haqiqati”, “Buxoro haqiqati”, “Dushmanga qarshi olg‘a”, “Qizil Armiya”, “Vatan uchun” nomdagi va shu kabi gazetalarda keltirilgan ma’lumotlarga asoslanib, Ikkinchi jahon urushi davrida O‘zbekistondagi sanoat, qishloq xo‘jaligi, madaniyat, sog‘liqni saqlash, ta’lim va boshqa ijtimoiy jarayonlar o‘rganilgan;

Ikkinchi jahon urushi davrida nashr etilgan materiallar, arxiv hujjatlarini ilmiy muomalaga kiritish hamda ularni kelajak avlodga yetkazish bo‘yicha ilmiy tavsiyalar ishlab chiqilgan;

Moddiy-ma’naviy madaniyat bo‘yicha to‘planayotgan ma’lumotlar bazasini yanada kengaytirishga olib kelgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi dissertatsiya ishida mahalliy va xorijiy manbalardan, 1941 – 1945-yillarda nashr qilingan matbuot materiallaridan, statistik ma’lumotlardan, respublika davlat arxivlarida saqlanayotgan hujjatlardan foydalanilganligi, xulosalar, taklif va tavsiyalarni amaliyotga tatbiq etilganligi, tadqiqot natijalarining vakolatli muassasalar tomonidan tasdiqlangani bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati, undan Ikkinchi jahon urushi tarixini o‘rganish bo‘yicha o‘tkaziladigan ilmiy tadqiqotlarda hamda “Tarixshunoslik va manbashunoslik”, “O‘zbekiston tarixi”, “Matbuot tarixi”, “San’at tarixi”, “Jahon tarixi” kabi fanlar bo‘yicha darslik va o‘quv qo‘llanmalar yaratishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Dissertatsiyaning amaliy ahamiyati shundan iboratki, uning natijalari yosh avlodni xalqimizning o‘tmishi, qadriyatlariga hurmat hamda vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda, respublikadagi mavjud muzeylar, xususan, “G‘alaba bog‘i” majmuasi tarkibidagi “Shon-sharaf” muzeyi fondlarini boyitishda xizmat qilishi mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Ikkinchi jahon urushi davri o‘zbek tilidagi gazetalardagi materiallar bo‘yicha tadqiqotlardan olingan **ilmiy xulosa va takliflar** asosida:

Ikkinchi jahon urushi yillarida o‘zbek tilida nashr qilingan respublika, oblast va rayon gazetalar matbuot va arxiv materiallari asosida nomma-nom tasniflab berilganligi hamda Ikkinchi jahon urushi davri gazetalar hamda arxiv manbalari asosida urush yillarida mahalliy imkoniyatlardan foydalangan holda oziq-ovqat, dori-darmon, turli sanoat mahsulotlari, ishlab chiqarishdan qolgan chiqindilardan Qizil armiya va xalq xo‘jaligi uchun asbob-uskuna va har xil vositalar tayyorlangani “Qizil O‘zbekiston”, “Stalin haqiqati”, “Lenin yo‘li”, “Buxoro haqiqati”, “Xorazm haqiqati” nomli gazetalarda nashr etilgan ma’lumotlar asosida

dalillanganligi kabi ilmiy yangiliklardan O'zbekiston Respublikasi Ma'naviyat va ma'rifat markazining 2022–2023-yillarda o'tkazilgan targ'ibot faoliyatida foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Ma'naviyat va ma'rifat markazi huzuridagi ijtimoiy-ma'naviy tadqiqotlar institutining 2023-yil 12-maydagi 178-sonli ma'lumotnomasi). Taqdim qilingan materiallar yoshlarda yuksak vatanparvarlik, milliy g'urur va iftixor tuyg'ularini rivojlantirish, harbiylar, vatan himoyachilariga hurmat uyg'otish, Vatanni himoya qilishni eng sharaflı burch ekanligini keng targ'ib qilish bo'yicha amaliy chora-tadbirlarni yo'lga qo'yishda xizmat qilgan.

Urush yillarida matbuot sahifalarida e'lon qilib borilgan she'rlar "ijtimoiy buyurtma" mahsuli sifatida aholini urushga safarbar etish, janglarda jasorat ko'rsatish, mudofaa fondiga mablag' yig'ish, harbiy zayomga yozilish, ko'chirilgan aholiga, ayniqsa, bolalarga g'amxo'rlik ko'rsatish, g'allani ko'paytirish, paxta rejasini oshirib bajarish va boshqa jarayonlarga faol jalb qilishga xizmat qilganligi hamda urush yillarida o'zbek matbuotida chop etilgan tibbiyot sohasiga oid maqolalarni arxiv ma'lumotlari bilan solishtirish asosida mazkur davrda aholi orasida yuqumli kasalliklarning tarqalishi kuchaygani, o'zbek matbuotining aholiga yuqumli kasalliklarga qarshi kurashish borasida faol tarzda tibbiy bilimlar berib borganligi haqidagi ilmiy yangiliklardan O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi "O'zbekiston" teleradiokanalining 2023-yil yanvar va may oylaridagi "Millat va ma'naviyat", "O'zbekiston yoshlari", "Ta'lim va taraqqiyot" dasturlarini samarali tashkil etishda, ularning dastur va ssenariylarini tayyorlashda foydalanilgan ("O'zbekiston teleradiokanali" davlat muassasasining 2023-yil 8-maydagi O'z/xv 23-31-sonli ma'lumotnomasi). Mazkur ma'lumotlar Ikkinchi jahon urushi davrida fashizm ustidan qozonilgan buyuk g'alabada O'zbekiston xalqining qo'shgan buyuk hissasini bugungi kundagi yosh avlodga yetkazishga, bu orqali ularni vatanparvarlik, fidokorlik, jasorat kabi fazilatlarini yuksaltirishga, shu bilan birga o'zbek xalqining shonli o'tmishiga hurmat ruhida tarbiyalashga qaratilgan ishlar samaradorligini yanada oshirishga asos bo'lgan.

Tadqiqot aprobatsiyasi. Dissertatsiya natijalari 6 ta ilmiy-amaliy anjumanlarda, jumladan 3 ta xalqaro va 3 ta Respublika anjumanlarida aprobatsiyadan o'tgan.

Natijalarning e'lon qilinganligi. Dissertatsiya materiallari yuzasidan jami 15 ta ilmiy ish chop etilgan. O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy Attestatsiya Komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 9 ta maqola, ulardan 6 ta respublika va 3 ta xorijiy jurnallarda chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi. Tadqiqot kirish, uch bob, oltita paragraf, xulosa, foydalanilgan manba va adabiyotlar ro'yxati hamda ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning tadqiqot qismi 159 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning kirish qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati asoslab ko'rsatilgan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor

yo‘nalishlariga mosligi, muammoning o‘rganilganlik darajasi tavsiflangan, tadqiqotning maqsad va vazifalari, obykti hamda predmeti, ilmiy yangiligi, amaliy natijalari ko‘rsatilgan, olingan natijalarning ishonchiligi asoslangan, uning ilmiy va amaliy ahamiyati bo‘yicha ma‘lumotlar keltirilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilinishi, aprotatsiyasi, xulosa, natijalarning e‘lon qilinganligi hamda dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi bayon etilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi **“Ikkinchi jahon urushi davri o‘zbek matbuotining tarixshunoslik va manbashunoslik tahlili”** deb nomlanib, unda Ikkinchi jahon urushi va urush yillaridagi matbuot tarixiga bag‘ishlangan ilmiy tadqiqot ishlari tarixshunoslik nuqtai nazaridan tahlil qilingan. Urush yillarida front matbuotining vujudga kelishi va front orti matbuoti faoliyatining qayta tashkil etilishining sabablari, urush yillaridagi o‘zbek matbuot tizimining statistikasi o‘rganilgan.

Ikkinchi jahon urushi yillarida o‘zbek matbuoti tarixiga bevosita yoki bilvosita daxldor bo‘lgan barcha ilmiy adabiyotlarni muammoli-xronologik jihatdan, bayon qilish uslubi va xarakteriga qarab uch guruhga bo‘linadi:

- 1) Sovet davrida yaratilgan ilmiy tadqiqotlar;
- 2) O‘zbekistonda mustaqillik davrida amalga oshirilgan ilmiy izlanishlar;
- 3) Xorijlik mualliflarning asarlari.

Sovetlar davrida Ikkinchi jahon urushi mavzusiga bag‘ishlangan ilmiy tadqiqotlar asosan, 1950-yillardan boshlangan. 1950 – 1990-yillar oralig‘ida bu borada o‘nlab yirik asarlar, yuzlab risolalar, minglab ilmiy maqolalar, ommabop va badiiy asarlar yaratilgan. Ikkinchi jahon urushi davri tarixshunosligini rivojlanish darajasini belgilashda dissertatsiya tadqiqotlari muhim o‘rin egallaydi. Ular orqali mavzu tarixshunosligida kechgan o‘zgarishlar, davr ruhi, fan rivojidadagi ziddiyatlarni aniqlash imkoniyati mavjud bo‘ladi. Sobiq sovet davrida Ikkinchi jahon urushi mavzusiga oid ko‘plab dissertatsiyalar yozilgan⁶.

⁶Туляганова М. Сельское хозяйство и патриотическое движение в Ташкентской области в годы Великой Отечественной войны (1941-1945 гг.): Автореф. дисс. ...канд. ист. наук. – Ташкент, 1966. – 32 с.; Худайбердиев Р. Трудовой подвиг колхозного крестьянства Узбекистана в период Великой Отечественной войны. (1941-1945 гг.): Автореф. дисс. ...канд. ист. наук. – Ташкент, 1966. – 32 с.; Исмаилова С. Братское сотрудничество узбекского и украинского народов в годы Великой Отечественной войны (1941-1945 гг.): Автореф. дисс. ...канд. ист. наук. – Самарканд, 1966. – 28 с.; Реука Г. Роль интеллигенции в борьбе за технический промышленность Узбекистана в годы Великой Отечественной войны (1941-1945 гг.): Автореф. дисс. ...канд. ист. наук. – Ташкент, 1968. – 24 с.; Вавилов Ф.И. Ферганская область в период Великой Отечественной войны (1941-1945 гг.): Автореф. дисс. ...канд. ист. наук. – Ташкент, 1969. – 36 с.; Асланов М. Трудовые подвиги трудящихся Ферганской области в годы Великой Отечественной войны (1941-1945 гг.): Автореф. дисс. ...канд. ист. наук. – Ташкент, 1974. – 36 с.; Нарбаев Х. Деятельность коммунистической партии Узбекистана по развитию топливной промышленности в годы Великой Отечественной войны (1941-1945 гг.): Автореф. дисс. ...канд. ист. наук. – Ташкент, 1974. – 24 с.; Ахунова Р.Р. Советская интеллигенция Узбекистана в годы Великой Отечественной войны (1941-1945 гг.): Автореф. дисс. ...канд. ист. наук. – Ташкент, 1975. – 32 с.; Обломуратов Н.Х. Помощь трудящихся Узбекистана в восстановлении народного хозяйства и учреждений культуры освобожденных районов СССР в Великой Отечественной войны (1942-1945 гг.): Автореф. дисс. ...канд. ист. наук. – Ташкент, 1981. – 28 с.; Салимов Р. Оборонно-массовая работа спортивных организаций Узбекистана в годы великой Отечественной войны (1941-1945 гг.): Автореф. дисс. ...канд. ист. наук. – Ташкент, 1984. – 24 с.

Mazkur dissertatsiyalar orasida T. E. Ernazarov, L. U. Yusupov, N. I. Ahmedova hamda K. Ziyatovlar tomonidan amalga oshirilgan tadqiqot natijalari⁷ aynan Ikkinchi jahon urushi davri matbuot mavzusiga bog'liqligi bilan soha tarixshunosligida muhim o'rin egallaydi. Sovet davrida Ukrainada V. S. Lozitskiy, Rossiyada A. N. Kopsev, Ozarbayjonda K. S. Bagradyanlar Ikkinchi jahon urushi davridagi matbuot mavzusida tadqiqot ishini olib borganlar⁸.

O'z davrining mahsuli sifatida ushbu tadqiqot natijalarida muammo talqini nihoyatda mafkuralashtirilgan va kommunistik partiyaning roli oshirilgan, voqeliklar bo'rttirilgan, tanqidiy munosabat bildirilmagan bo'lsada, manbaviy asos va tarixiy ma'lumotlar nuqtai nazaridan ular bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotgan emas.

Ikkinchi guruhdagi ilmiy izlanishlarga mustaqillik yillarida O'zbekistonda amalga oshirilgan ilmiy tadqiqot natijalari kiritildi.

Mustaqillik yillarida Ikkinchi jahon urushi mavzusiga bo'lgan munosabat yangi darajaga ko'tarildi. Avvalo, uzoq yillar mobaynida asosiy o'ringa qo'yib kelingan kommunistik partiyaning roliga urg'u berishga barham berildi. Ikkinchidan, fashizm ustidan qozonilgan g'alabada o'zbek xalqining qo'shgan hissasini ochib berishga ko'proq urg'u berila boshlandi. Ahamiyatli jihati mustaqillik davri tadqiqotlarida sovetlar davrida qo'llanilib kelingan "Ulug' vatan urushi" atamasi o'rniga "Ikkinchi jahon urushi" atamasi ishlatila boshlandi. Mustaqillik yillarida O'zbekistonning Ikkinchi jahon urushi yillaridagi siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy hayoti bilan bog'liq himoya qilingan dissertatsiyalar talaygina⁹. Bundan tashqari, Ikkinchi jahon urushi davrini tarkibiy jihatdan

⁷Эрназаров Т. Партийно-советская печать в период Великой Отечественной войны Советского Союза (1941-1945 гг.): Дисс. ... канд. ист. наук. – Ташкент, 1955. –392 с.; Юсупов Л.У. Печать Узбекистана – коллективный организатор масс на народных стройках в годы Великой Отечественной войны: Автореф. дисс. ...канд. ист. наук. – Ташкент, 1971. – 32 с.; Ахмедов Н. И. Роль местной печати Узбекистана в подъёме трудовой активности трудящихся республики в период Великой Отечественной войны (1941-1945 гг.): Дисс. ...канд. ист. наук. – Ташкент, 1983. – 202 с.; Зиятов К. Деятельность компартии Узбекистана по повышению роли средств пропаганды и массовой информации в интернациональном воспитании трудящихся в годы Великой отечественной войны (1941-1945 гг.): Дисс. ... канд. ист. наук. – Ташкент, 1984. –188 с.

⁸ Лозицкий В. С. Партийно-советская печать Украины – активный помощник партии в мобилизации трудящихся республики на разгром немецко-фашистских захватчиков 1941-1945 гг. – Киев, 1983. – 204 с.; Копцев А. Н. Печать – боевой помощник партии в мобилизации трудящихся на борьбу с фашизмом (1941-1945 гг.) (на материалах Карелии, Архангельской и Вологодской областей). – Ленинград, 1984. – 228 с.; Баградян К. С. Газета «Бакинский рабочий» в годы Великой Отечественной войны (1941-1945 годы). – Баку, 1984 г. – 202 с.

⁹ Шамуратова М. Творческое сотрудничество интеллигенции Узбекистана с эвакуированными в республику представителями науки и культуры (1941-1945 гг.): Дисс. ...канд. ист. наук. – Ташкент, 1991. – 170 с.; Ибрагимов Х. Социально-экономическая жизнь Узбекистана в годы Великой Отечественной войны (1941-1945 гг.): Дисс. ...канд. ист. наук. – Андижан, 1993. – 154 с.; Калымбетов Б.Ж. Помощь трудящихся Республики Узбекистан районам, освобожденным от фашизма в 1941-1945 годах. Дисс. ...канд. ист. наук. – Ташкент, 1995. – 130 с.; Иванова О.И. Актуальные проблемы общественного развития Узбекистана в годы войны 1941-1945 гг. в исторической литературе. Дисс. ...канд. ист. наук. – Ташкент, 1995. – 218 с.; Ли Д.М. Укрепление сплоченности народа Узбекистана в период войны с германским фашизмом (1941-1945 гг.): Дисс. ...канд. ист. наук. – Андижан, 1997. – 158 с.; Азимов Х. И. Иккинчи жаҳон урушида Ўзбекистон ҳарбийлари иштироки ва мавқеи: Тарих фан. номз. ...дисс. – Тошкент, 2004. – 180 б.; Бабаджанов Х.Б. Иккинчи жаҳон уруши йилларида Ўзбекистон иқтисодиётидаги трансформацион жараёнлар: тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси. – Т., 2018. – 156 б.; Сафарова З. С. Иккинчи жаҳон уруши йилларида Ўзбекистон маданияти: Тарих фан. фал. докт. (PhD) ...дисс.– Самарканд, 2020. – 169 б.; Алламуратов Г. С. Қорақалпоғистоннинг кундалик ҳаёт тарзи тарихи (1941-1945 йиллар): Тарих фан. фал.

o'rganilgan bir necha dissertatsiyalar ham yozilganini aytish joiz¹⁰. Har ikki turdagi tadqiqotlar orasida quyidagilar aynan Ikkinchi jahon urushi davridagi matbuot tarixiga bog'liqligi bilan ajralib turadi:

Xususan, Zilola Safarova tomonidan tayyorlangan "Ikkinchi jahon urushi yillarida O'zbekiston madaniyati" nomli PhD dissertatsiya ishining bitta paragrafi urush yillarida matbuot faoliyati va uning ommaga ta'siriga bag'ishlangan. O'zbekiston milliy universiteti tadqiqotchisi Dildora Alinazarovanning "Farg'ona vodiysida vaqtli matbuotning shakllanishi va rivojlanishi (XIX asr oxiri – XX asrning 80-yillari)" nomli tadqiqotida Farg'ona vodiysidagi vaqtli matbuotning II jahon urushi yillaridagi tarixiga ham o'rin berilgan. Nurjanov Sabit Uzakbayevich tomonidan yozilgan "Qoraqalpog'iston davriy matbuoti tarixi (1924-1953-yillar)" mavzusidagi tarix fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasining "1939-1945-yillarda Qoraqalpog'iston davriy matbuotining faoliyati" deb nomlangan 4-bobida matbuotning urush davridagi holati, uning safarbarlik mohiyati va Qoraqalpog'iston sharoitida yangiliklar targ'ibotining mohiyati yoritilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning "Ikkinchi jahon urushida fashizm ustidan qozonilgan g'alabaga O'zbekiston xalqining qo'shgan munosib hissasiga bag'ishlangan kitob-albomni nashr etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoyishidan keyin S. Saidolimov boshchiligidagi mualliflar tomonidan 2020-yilda "O'zbekiston xalqining fashizm ustidan qozonilgan g'alabaga qo'shgan hissasi" nomli, 2021-yilda "O'zbekiston Ikkinchi jahon urushi davrida" nomli kitob-albomlar¹¹ nashrdan chiqdi.

Tarixchi olim Rustambek Shamsutdinov tomonidan Ikkinchi jahon urushi yillarida chop etilgan front gazetalarida berilgan O'zbekistonga oid maqolalarni asl holicha jamlab "Ikkinchi jahon urushi va front gazetolari" nomi bilan kitob nashr etildi. Kitobning 2017-yilda 3 ta jildi, 2020-yilda 4- va 5-jildlari nashr qilindi¹².

O'zbekistonda so'nggi yillarda Ikkinchi jahon urushi mavzusi bilan bog'liq kitoblar, dissertatsiyalar bilan bir qatorda, respublika va xalqaro miqyosdagi anjumanlar o'tkazish ko'payganini ta'kidlash lozim. Aksariyat hollarda bu anjumanlar fashizm ustidan qozonilgan g'alabaning yubiley sanalari bilan bog'liq ravishda tashkil etilmoqda.

Jumladan, Ikkinchi jahon urushida fashizm ustidan qozonilgan g'alabaning 75 yilligi munosabati bilan 2019-yilda Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika

докт. (PhD) ...дисс. автореф. – Нукус, 2022. – 54 б.; Toshov K.T. Ikkinchi jahon urushi yillarida O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy holati (Surxon vohasi misolida): Tarix fan. fal doktori (PhD) ...diss. avtoreferati. – Termiz, 2023. – 48 b.

¹⁰Алиязарова Д. В. Фарғона водийсида вақтли матбуотнинг шаклланиши ва ривожланиши (XIX аср охири – XX асрнинг 80 йиллари): Тарих фан. фал. докт. (PhD) ...дисс. автореф. – Тошкент, 2022. – 59 б.; Усманов Ф. А. Ўзбекистонда болалар қаровсизлиги масаласи (1917-1945 йиллар): Тарих фан. фал. докт. (PhD) ...дисс. автореф. – Термиз, 2022. – 54 б.; Нуржанов С.У. Қорақалпоғистон даврий матбуоти тарихи (1924-1953 йиллар). Тарих фанлари доктори (DSc) ...дисс. автореф. – Нукус, 2022. – 68 б.

¹¹Saidolimov S. va boshq. O'zbekiston xalqining fashizm ustidan qozonilgan g'alabaga qo'shgan hissasi (kitob-albom). – Toshkent: "O'zbekiston" nashriyoti, 2020. – 320 b.; Saidolimov S. va boshq. O'zbekiston Ikkinchi jahon urushi davrida (Kitob-albom). – Toshkent: "O'zbekiston" nashriyoti, 2021. – 288 b.

¹²Шамсутдинов Р. Иккинчи жаҳон уруши ва фронт газеталари. 1, 2, 3-китоблар. – Тошкент: Akademnashr, 2017; O'sha muallif. Иккинчи жаҳон уруши ва фронт газеталари. 4, 5-китоблар. – Тошкент: Akademnashr, 2020.

universiteti, O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Tarix instituti, O'zbekiston tarixchilar jamiyati hamda Rossiya Federatsiyasining bir qator oliy ta'lim muassasalari va ilmiy tashkilotlari hamkorligida "Eshelonlar Sharqqa boradilar. Ulug' Vatan urushi davrida O'zbekistonga evakuatsiya" mavzusidagi xalqaro-ilmiy konferensiya materiallari e'lon qilinib, unda urush yillaridagi turli sohalarga oid maqolalar chop etildi. 2020-yilda esa, "Ikkinchi jahon urushi va O'zbekiston xalqi: shaxslar va xotiralar" mavzusida ilmiy maqolalar to'plami nashr etildi¹³.

O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi va O'zbekistonning eng yangi tarixi masalalari bo'yicha muvofiqlashtiruvchi-metodik markazning tashabbusi bilan 2020-yilda "Ikkinchi jahon urushi va O'zbekiston xalqi: tadqiqotlar" ilmiy maqolalar to'plamining 1-jildi, 2022-yilda esa, 2-jildi nashr etildi¹⁴.

Uchinchi turdagi ilmiy tadqiqotlarni tahlil qilish natijasida Ikkinchi jahon urushi yillarida chop qilingan matbuot materiallarini Sovet Ittifoqi parchalangandan keyin Rossiya Federatsiyasida D. S. Chankayeva, A. V. Malishev, V. A. Gorelkin, T. A. Sribnaya, M. I. Filonenko, E. I. Golovchenko, K. A. Zemlyanskiylar¹⁵, Tojikistonda I. V. Lekarkin singari tadqiqotchilarning ilmiy ishlarida Ikkinchi jahon urushi yillaridagi matbuot mavzusi yoritilgan.

Ikkinchi jahon urushi matbuoti tarixshunosligidagi har uchala turdagi ilmiy tadqiqot natijalarini tahlil qilib, urush yillarida o'zbek tilida chiqqan front va front ortidagi gazetalarda chop qilingan harbiy, siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayot bilan bog'liq materiallar bizgacha bo'lgan davrda yaxlit bir tizim asosida o'rganilmaganligini aytish mumkin.

Sovet tuzumi davrida matbuot – Bolshevik hukumatning qo'lidagi eng kuchli va o'tkir qurol bo'lib kelgan. Ikkinchi jahon urushi yillarida esa, matbuotning jamiyat va davlat hayotidagi roli yanada ortgan, yangi an'analar bilan boyigan.

¹³Эшелоны идут на восток. Эвакуация в Узбекистан в годы Великой отечественной войны. / Сборник материалов Международной научной конференции, посвящённой 75-летию Великой Победы. – Оренбург – Ташкент, 2019. – 280 с.; Иккинчи жаҳон уруши ва Ўзбекистон халқи: шахслар ва хотиралар. / Илмий мақолалар тўплами. – Тошкент: Tamaddun, 2020. – 108 б.

¹⁴ Иккинчи жаҳон уруши ва Ўзбекистон халқи: тадқиқотлар (Илмий мақолалар тўплами). – Тошкент: "Turon-iqbol" nashriyoti, 2020. – 100 б.; Иккинчи жаҳон уруши ва О'zbekiston xalqi: tadqiqotlar. / Ilmiy maqolalar to'plami. 2-jild. – Toshkent: "O'zbekiston" nashriyoti, 2022. – 352 b.

¹⁵ Чанкаева Д. С. Печать Северного Кавказа в годы Великой Отечественной войны (1941-1945): Дисс. ... канд. ист. наук. – Ставрополь, 1999. – 248 с.; Малышев А. В. Средства массовой информации Юга России в годы Великой Отечественной войны: На материалах Дона, Кубани, Ставрополья. Дисс. ...канд. ист. наук. – Ростов-на-Дону, 2001.–189 с.; Горелкин В. А. Пропагандистская деятельность нацистской Германии среди военнопленных Красной Армии и населения временно оккупированных территорий СССР в период Великой отечественной войны. 1941-1945 годы: Дисс. ...канд. ист. наук. – Волгоград, 2003. – 197 с.; Срибная Т. А. Военно-патриотическая печатная пропаганда в предвоенные годы и во время Великой Отечественной войны. Дисс. ...канд. ист. наук. – Пятигорск, 2005. –191 с.; Филоненко М. И. Психологическая война немецко-фашистских войск против частей Красной Армии и населения временно оккупированных территорий в годы Великой Отечественной войны: на материалах Воронежской области. 1942-1943 гг. Дисс. ...канд. ист. наук. – Воронеж, 2006 г. –207 с.; Головченко Е. И. Функционирование средств массовой информации Воронежской области в годы Великой Отечественной войны. Дисс. ...канд. ист. наук. – Воронеж, 2010. –252 с.; Бормотова А. Р. Печать периода Великой отечественной войны на территории Курской области: Автореф. дисс. ...канд. ист. наук. – Курск, 2010.; Лекаркин И. В. «Народная газета» в системе периодической печати Таджикистана. Дисс. ...канд. ист. наук. – Душанбе, 2015. – 206 с.; Землянский К. А. Политическая пропаганда и общественное сознание в годы Великой Отечественной войны 1941–1945 гг. (на материалах Ростовской области): Автореф. дисс. ...канд. ист. наук. – Ростов-на-Дону, 2018. – 31 с.

Urush davrida sovet matbuoti, xususan, o'zbek matbuoti ham o'z ishini urush sharoitlariga moslab qayta qurgan.

Qizil Armiya qismlarida milliy tillarda chiqadigan gazetalarni nashr etilishi va mahalliy matbuot organlari faoliyatining kuchaytirilishi zaruriyatini quyidagi sabablar bilan bog'lash mumkin:

Birinchidan, Qizil Armiya harbiy texnika va kuch jihatidan ustun bo'lgan fashistlar armiyasining zarbasi ostida mamlakatning ichkari tomoni – Sharqqa qarab chekinishga majbur bo'lgan. Sovet qo'shinlarining vaqtincha mag'lubiyati va orqaga chekinishida front va orqa tomonning ma'naviy ahvoli juda katta ahamiyatga ega edi. Bunday og'ir sharoitda dushmanni mamlakatdan surib chiqarib, butunlay mag'lub qilish uchun armiya va xalq o'zining barcha jismoniy va ma'naviy kuchlarini safarbar qilishi, misli ko'rilmagan sadoqat, jasorat va fidokorlik namunalarini ko'rsatishi lozim edi.

Ikkinchidan, Germaniya Sovet Ittifoqiga nafaqat aviatsiya, tanklar, suv osti kemalari va piyoda qo'shinlari orqali hujum qildi, balki, ittifoq hududidagi xalqlar ongiga, sovetlar o'rnatgan psixologiyaga qarshi qaratilgan axborot-psixologik urush ham boshladi.

Germaniya SSSRga qarshi kompaniyaga avvaldan puxta tayyorgarlik ko'rgan edi. Xususan, 1941-yil 21-fevralda Vermaxtning tashviqot bo'limi sovet aholisining milliy xususiyatlarini hisobga olgan holda uni mafkuraviy parchalash taktikasini muhokama qilgan¹⁶.

Germaniyaning SSSRga qarshi psixologik urushining eng muhim turlari bosma va vizual tashviqot vositalari: gazetalar, jurnallar, varaqalar, broshyuralar, plakatlar, devoriy gazetalar bo'lgan¹⁷.

Boshqa tomondan, I. Stalin boshchiligidagi sovet hukumatining 20 – 30-yillarda butun ittifoq bo'ylab amalga oshirgan qatag'onlik siyosati va bu davrda amalga oshirilgan zo'ravonliklar, xunrezliklar nemis matbuoti uchun juda ham qo'l kelgan edi. Chunki, ushbu siyosatdan jabr ko'rgan, alamzada, norozi insonlar ittifoq hududida juda ham ko'p bo'lgan.

Yuqoridagi sabablardan kelib chiqib, sovet hukumatiga urush davrida dushmanga qarshi xalqni birlashtira oladigan, fashistlarning axborot xurujlariga qarshi tura oladigan kuchli matbuot tizimini yaratish qanchalik zarur bo'lganini anglash qiyin emas.

Natijada, KPSS Markaziy komiteti frontga O'rta Osiyo va Kavkazdan borgan jangchilarning aksariyati rus tilini bilmaganligini hisobga olib, barcha frontlarda o'zbek, qozoq, qirg'iz, tojik, gruzin va arman tillaridagi gazeta, jurnal, risola va varaqalar chop etishga qaror qilgan. SSSR Xalq komissarlari soveti va VKP (b) Markaziy Komitetining 1941-yil 29-iyunda, Ishchi-dehqon qizil armiyasi Siyosiy targ'ibot bosh boshqarmasining (RKKA) 1941-yil 23-iyunda chiqargan direktivalari, ayniqsa, VKP (b) MKning 1942-yil 12-iyunda chiqargan "Harbiy qismlardagi ommaviy-siyosiy ishlarni kuchaytirish to'g'risida"gi qarori front

¹⁶ Горелкин В. А. Пропагандистская деятельность нацистской Германии среди военнослужащих Красной Армии и населения временно оккупированных территорий СССР в период Великой Отечественной войны. 1941-1945 годы: Дисс. ...канд. ист. наук. – Волгоград, 2003. – С.58.

¹⁷ Горелкин В. А. Пропагандистская ... – С.53-54.

gazetalarini tashkil etishda huquqiy asos bo'lib xizmat qilgan¹⁸. Urush yillarida o'zbek tilida jami 14 ta front gazetasi va 2 ta diviziya gazetasi nashr qilingan bo'lib¹⁹, ular "Atakaga", "Bong", "Vatan sharafi uchun", "G'alaba bayrog'i", "G'alaba sari olg'a", "Dushmanga qarshi olg'a", "Dushmanni tor-mor etishga", "Qizil armiya", "Qizil askar haqiqati", "Qizil askarlar", "Sovet jangchisi", "Suvorov natiski", "Suvorovchi", "Front haqiqati" kabi gazetalar bo'lgan.

Ikkinchi jahon urushi butun ittifoq respublikalari kabi O'zbekiston matbuoti yo'nalishini keskin o'zgartirib yuborgan. Urush bilan bog'liq jarayonlar natijasida respublikadagi fuqaro matbuoti tarmoqlari qisqartirilib, o'rniga harbiy gazetalar tashkil etilgan. Sohalar bo'yicha markaziy gazetalar soni kamaytirilgan. Nafaqat gazetalar soni, balki, ularning tirajlari ham qisqartirilgan. Respublika, o'lka va viloyat gazetolari haftada besh marta, tuman gazetolari haftada bir marta chiqadigan bo'lgan²⁰. 1941-yilda 7 ta respublika gazetalarining faoliyati vaqtincha to'xtatilgan²¹. Matbuot nashrlarining umumiy soni va bir martalik tirajining kamayishi asosan, ko'zga ko'rinadigan qog'oz fondlarining kamayishi hisobiga yuz bergan.

O'zbekiston Kommunistik partiyasi Markaziy Komiteti, Toshkent oblast, shahar komitetlari va O'zbekiston SSR Oliy Sovetining organi – "Qizil O'zbekiston" gazetasi o'zbek tilida chiqadigan birinchi darajadagi gazeta vazifasini bajargan.

Urush yillarida targ'ibot-tashviqot ishlarida davriy matbuot nashrlari, devoriy gazetalar, varaqalar, plakatlardan keng foydalanilgan. Ularda frontdagi jangchilarning jangovarligini, front ortidagi aholini esa, mehnat unumini oshirish, frontni yanada moddiy va ma'naviy jihatdan qo'llab-quvvatlashini kuchaytirishga harakat qilingan. Matbuot sovet hukumati va xalq ommasini bir-biri bilan bog'lovchi eng muhim vosita vazifasini bajargan.

Ammo, Ikkinchi jahon urushi yillaridagi o'zbek matbuotida bir qator kamchiliklar va xatolarga ham yo'l qo'yilgan.

Birinchidan, voqeliklarga bir tomonlama, kommunistik partiya belgilab bergan yo'l-yo'riqlar asosida yondashilgan.

Rus tilidagi buyruq, qaror va boshqa qonun hujjatlari hamda turli matnlardan o'zbek tiliga tarjima qilingan maqolalarning ayrim jumllalarida tushunarsizlik, noaniqlik holatlari uchrab turgan. Targ'ibot-tashviqot maqsadiga qaratilgan aksariyat maqolalarda voqeliklar bo'rttirib ifodalangan.

Tadqiqot natijalarini umumlashtirgan holda aytish mumkinki, tarixiy manba va ilmiy adabiyotlar bilan bir qatorda davriy matbuot nashrlari ham muhim ekanligini ta'kidlash mumkin. Shu jihatdan, davlat arxivlari va kutubxonalarda saqlanayotgan urush yillarida nashr qilingan o'zbek tilidagi gazetalar va ularda

¹⁸ Шамсутдинов Р. Иккинчи жаҳон уруши ва фронт газеталари. 2-китоб. – Тошкент: Akademnashr, 2017. – Б.4.

¹⁹ Шамсутдинов Р. Иккинчи жаҳон уруши ва фронт газеталари. 1-китоб. – Тошкент: Akademnashr, 2017. – Б.8-11.

²⁰ Сафарова З.С. Иккинчи жаҳон уруши йилларида Ўзбекистон маданияти: Тарих фан. фал. докт. (PhD) ...дисс. – Самарқанд, 2020. – Б.117.

²¹ Ўзбекистон миллий архиви (Ўз МА). Р-1619-фонд, 11-рўйхат, 883-иш, 9-варак.

chop etilgan maqolalarni tizimlashtirish va ilmiy muomalaga kiritish nafaqat O'zbekiston tarixini Ikkinchi jahon urushi davrini manbalar bilan boyitishga xizmat qiladi, balki tarixning ilgari o'rganilmagan sahifalarini har tomonlama xolis yoritish imkonini beradi.

Dissertatsiyaning **“O'zbek matbuotida sanoat va qishloq xo'jaligi sohalarining yoritilishi”** deb nomlangan ikkinchi bobida urush yillarida sanoatlashtirish, elektrlashtirish va qishloq xo'jaligi sohasida amalga oshirilgan tadbirlar, erishilgan yutuq va kamchiliklar hamda bu borada sovet hokimiyatining yuritgan siyosati yoritib berilgan.

Urush ehtiyojlari ko'chirib keltirilgan korxonalardan tashqari O'zbekistonda ko'plab yangi yengil sanoat korxonalari barpo etilishiga sabab bo'lgan. E'tiborli tomoni shundaki, bunday korxonalarining ko'pchiligi o'z yo'nalishi bo'yicha birinchi marta qurilayotgan edi. Masalan, 1942-yilda Yangiyo'l konserva zavodi bazasida respublikadagi birinchi shishasozlik korxonasi qurilib, ishlab chiqarish uchun korxona Chirchiq qumi, Jizzax ohagi, Orol dengizining sulfat-natriysi bilan ta'minlangan²². 1944-yil iyunidan Shahrizabzda yuqori sifatli pishloq ishlab chiqaradigan respublikadagi birinchi zavod ishlay boshladi. Zavodning asbob-uskunalari shu joyning o'zida tayyorlangan²³. Oziq-ovqat sanoatida amalga oshirilgan ishlarning eng ahamiyatlisi bu – O'zbekistonda yog' zavodlarining qurilishi bo'ldi. Yog' zavodlarining qurilishi shuning uchun ham ahamiyatli bo'ldiki, paxta chigitini respublikaning markaziy shaharlariga, yog' tayyor bo'lgach esa, uni yana aholiga yetkazish uchun qaytadan tashish zaruriyatiga chek qo'yilgan²⁴.

Ikkinchi jahon urushining boshlanishi bilan Sovet Ittifoqining barcha hududlari, xususan, O'zbekistonda mahalliy ichki resurslardan foydalanish masalasi dolzarb vazifaga aylangan. Bu jarayon ishlab chiqarishning barcha tarmoqlari kolxoz, sovxoz, sanoat korxonalarida amalga oshirilgan. Rejaga ko'ra, mahalliy resurslar aholi ehtiyojlarini qondirishi kerak edi. Shunday qilinganda, davlat markazlashtirilgan fondlardan aholi uchun kam, front uchun esa shuncha ko'p mablag' sarflay olar edi, shuningdek, ko'plab zaxira g'amlay olish imkoniyatiga ega bo'lardi. Shuni hisobga olib hukumat mahalliy tashkilotlar oldiga har bir hududning o'ziga xos imkoniyatlaridan kelib chiqib, oziq-ovqat hamda sanoat ishlab chiqarishida mahalliy resurslardan yuqori darajada foydalanish vazifasini qo'ydi.

Xususan, Buxoro oblastining Koson rayonidagi “Kommuna” arteli, Qarshi va Chiroqchi rayonlaridagi artellar yaylovlarda ko'plab o'sadigan “tikan shakar” o'simligini qaytadan ishlab, undan hosil bo'ladigan qand-shirasidan holva, nisholda, boshqa mahalliy shiravorlar pishirgan²⁵. Mahsulotlarning urug'laridan ham unumli foydalanib, o'rik danaklaridan “sho'rak” qilish, qovun, tarvuz va qovoq urug'laridan yog' olish ishlari tashkil qilingan²⁶.

²² Кизил Ўзбекистон. – №8 (5300). 1942, 10 январь.

²³ Юқори сифатли пишлоқ заводи // Душманга қарши олға. – №47 (208). 1944, 15 июнь.

²⁴ Янги ёғ заводлари // Душманга қарши олға. – №1 (162). 1944, 1 январь.

²⁵ Бухоро ҳақиқати. – №261 (1062). 1941, 4 ноябрь.

²⁶ Бухоро ҳақиқати. – №261 (1062). 1941, 4 ноябрь.

Urushning boshlanishi va O‘zbekistonga front hududlaridagi ko‘plab korxonalarning ko‘chirib keltirilishi hamda yangilarining qurilishi o‘z navbatida katta elektr energiyasi bazasini vujudga keltirishni ham talab qilgan. Sovet hukumati korxonalarning ishlab chiqarish quvvatini oshirishda vujudga kelgan elektr taqchilligini bartaraf etishni ikkita yo‘l orqali, birinchidan, mavjud elektr energiyasini tejash va qayta taqsimlash, ikkinchidan yangi elektr stansiyalarini barpo etish yo‘li bilan hal etishga harakat qilgan²⁷.

“Qattiq tejash – urush vaqtining qonunidir”, “Elektr quvvati qattiq tejasin” kabi chaqiriqlar urush davri matbuotining xarakterli xususiyatlaridan hisoblanadi.

Ikkinchi jahon urushi davrida ishlab chiqarish uchun tobora oshib borayotgan elektr energiyasiga bo‘lgan ehtiyojni faqatgina tejash yo‘li bilan qondirishni imkonni yo‘q edi. Buni yaxshi anglagan sovet hukumati O‘zbekistonda bir qator yirik, o‘rta va kichik turdagi gidroelektrostansiyalar qurish bo‘yicha qaror chiqargan. 1943-yilda O‘zbekistonda amalga oshirilgan qurilishning eng yiriklaridan biri – bu Farhod gidroelektrostansiyasi bo‘ldi.

O‘zbekistonning barcha hududlaridan Farhod GESi qurilishi uchun ko‘plab kolxozchilar jalb etilgan. Masalan, Toshkent oblastidan – 10913, Farg‘onadan – 10000, Andijondan – 12000, Samarqanddan – 12000²⁸ hamda Namangandan – 9500²⁹ kishi qatnashgan.

To‘satdan boshlangan urush mamlakat aholisi zimmasiga avvalgidan ham shiddatliroq ishlash mas’uliyatini yukladi. Yurtimiz shahar va qishloqlarida mehnat sohasidagi g‘ayrat va tashabbus benihoya o‘sgan. Ayniqsa, 1941-yilda O‘zbekistonning qishloq xo‘jaligi paxtachilik, ipakchilik, qorako‘lchilik sohasida bir qator muvaffaqiyatlarga erishilgan. Jumladan, O‘zbekiston kolxozchilari 1941-yilda davlatga 1940-yildagiga nisbatan 15 foiz ko‘p paxta topshirdilar. O‘z navbatida ipak 22,5 foiz, don 14 foiz, sabzavot 53 foiz, kartoshka 9 foiz, yog‘ mahsulotlari 65 foiz, pichan 100 foiz, go‘sht 6 foizdan ortiq topshirilgan³⁰. Kolxozchilarning yangi yerlarni o‘zlashtirishdagi samarali mehnati natijasida, 1941-yilda foydalanib turilgan yerlarga qo‘shimcha ravishda 110 ming 300 gektar yer o‘zlashtirilib, foydalanishga topshirilgan³¹.

Mamlakatimizda paxta yetishtirish 1941-yilda avvalgi yilga nisbatan 15 foiz oshgan bo‘lsa, 1942-yilda O‘zbekiston butun ittifoqdagi paxta hosilining 60 foizini yetkazib bergan³². Ammo, qishloq xo‘jaligida urushga safarbarlik sababli ishchi

²⁷Бабаджанов Х. Б. Обеспечение электроэнергией экономики узбекистана в годы второй мировой войны: проблемы и пути их решения // Актуальные вопросы общественных наук: социология, политология, философия, история. №1-2 (61), 2017 г. – С.10-14. // <https://cyberleninka.ru/article/n/obespechenie-elektroenergiiy-ekonomiki-uzbekistana-v-gody-vtoroy-mirovoy-voyny-problemy-i-puti-ih-resheniya/viewer> [Мурожаат қилинган сана: 11.12.2022].

²⁸Матниязов М. Борьба коммунистической партии Узбекистана за дальнейшую электрификацию республики в годы Великой Отечественной войны // Общественные науки в Узбекистане. – Ташкент, 1961. – №10. – С. 35-40.

²⁹ Наманган области топирикни бажарди // Сталин ҳақиқати. – №.51 (2492). 1943, 5 март.

³⁰Ўзбекистон фашизмни тор-мор келтиришга қандай ёрдам бераётир // Сталин ҳақиқати. – №2 (2141). 1942, 3 январь.

³¹Ўзбекистон фашизмни тор-мор келтиришга қандай ёрдам бераётир // Сталин ҳақиқати. – №2 (2141). 1942, 3 январь.

³² Шамсутдинов Р. Иккинчи жаҳон уруши ва фронт газеталари. 1-китоб. – Тошкент: Akademnashr, 2017. – Б.29.

kuchi yetishmovchiligi kelib chiqqan, shuningdek, ot-ulov va transport vositalarining kamayishi, noqulay ob-havo, paxtadan tashqari qishloq xo‘jalik ekinlarining ko‘payishi va boshqa ko‘plab sabablar natijasida, 1943-yilda paxta yetkazib berish rejasi bajarilmay qolgan. Bu esa, 1944-yilda respublikada paxta siyosatining keskin darajada kuchayishiga olib kelgan.

Respublikada 1944-yilda paxtachilikni kuchaytirish uchun avvallari paxtadan yuqori hosilga erishgan, ammo keyinchalik boshqa ishlarga o‘tib ketgan paxta yetishtirish ustalarini kolxozlarga qaytarilgan. Bularga misol qilib, “yuzsentnerchilar harakati”ning tashabbuskori va keyinchalik Toshkent oblast ijroiya komitetining raisi bo‘lgan Ibrohim Rahmatov, Oltinko‘l rayon ijroiya komitetining raisi Teshaboy Mirzayev, O‘zbekiston SSR Oliy Sovetining deputati Qodirjon Umarov va boshqalarni aytish mumkin. Shu yili kolxozlarga jami 800dan ko‘proq kishi qaytarilgan³³.

Matbuot sahifalarida yetishtirilgan paxta hosilini nobud qilmay terib olishga chaqirilgan. Paxtaning ahamiyati haqida: “Paxta – bu to‘qimachilik va harbiy sanoatimiz uchun qimmatli mahsulot, Qizil Armiya va xalqimiz uchun kiyim, gazlama, ip, yog‘, kunjara, sheluxadir. Agar 1 kg chigitli paxta nobud qilinar ekan 2,5 metr gazlama yoki 8000 metr tikar ip, 170 gramm yog‘ va 630 gramm kunjara va sheluxa yo‘qotilgan bo‘ladi”³⁴ deyiladi.

